

**FUQAROLARNING FAVQULODDA VAZIYATLARDA KO'RILADIGAN  
ZARUR CHORALAR HAQIDAGI BILIMLARINI OSHIRISH BO'YICHA  
TA'LIM RESURSLARINI YARATISH UCHUN BILIM VA KO'NIKMALARINI  
RIVOJLANTIRISH**

***Nuraliyev Abdulhamid Oybek o'g'li***

*Namangan davlat universiteti Kasb ta'lifi kafedrasini  
stajyor-o'qituvchisi*

***Turg'unboyev Doniyor Ismoiljon o'g'li***

*Namangan davlat universiteti Kasb ta'lifi kafedrasini  
Hayot faoliyati xavfsizligi yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** So'ngi yillarda dunyoda favqulodda vaziyatlarning soni va qamrovi keskin oshib borayotganligi kuzatilmoqda. Aholini favqulodda vaziyatlarda muhofaza qilish tizmini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 1998 yil 27 oktabrdagi 455 sonli qaroriga asoslangan holda texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi ofatlarni oldini olishga. Ya'ni bunda aholini ogohlantirish, fuqorolarning favqulodda vaziyatlarda ko'rildigan zaruriy choralarini va bilimlarini oshirish nomli elektron axborot Ta'lif resursidan foydalanish va uni yaratish jarayoniga extiyoj tug'ilmoqda.

**Kalit so'zlar:** Favqulodda vaziyat, zamonaviy elektron ta'lif, multimedia ta'lif texnologiyalari, kompyuter texnikasi.

**Kirish:** Dunyoda so'ngi yillarda favqulodda vaziyatlarning soni keskin oshib bormoqda. Sodir bo'layotgan tabiiy, texnogen, ekologik favqulodda vaziyatlar butun insoniyat e'tiboridagi eng muhim masalalardan biriga aylanib bormoqda. Mamlakatimiz davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri aholining barcha qatlamlarini va hududlarini tabiiy hamda texnogen favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, xavfsizlikni ta'minlash, barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishiga asos bo'ladi. Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilishga,

o'rgatishga, bor e'tiborini qaratgan davlatlarda kamroq talofat ko'rayotganligiga amin bo'lmoqdamiz. Bugungi zamonaviy ta'lim - axborot ta'lim muhiti imkoniyatlaridan keng foydalanishga asoslangan bo'lishi kerak, uni shakllantirish uchun elektron ta'lim resurslarini tayyorlash, shu bilan birga, bunday o'quv-metodik materiallarini yangi avlodni yaratish tamoyillari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu esa, o'z navbatida mavjud tizimni ilmiy tomondan chuqur o'rganish, tahlil qilish mavjud muammolarni topish va bu muammolar orqali yurtimiz aholisini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash bo'yicha izlanishlarni olib borishni taqozo qiladi. Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va oqibatlarini bartaraf qilish ishlari bo'yicha tajribalar shuni ko'rsatadiki, agar qutqaruvchlar va rahbarlar yuqori professional darajada harakat qilishsa hamda aholining barcha toifalari favqulodda vaziyatlarda harakat qilish ko'nikmalariga ega bo'lsa, qurbanlar va jabrlanuvchilar soni kamayashi va moddiy yo'qotishlar ancha past bo'lishi mumkin.[24] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 sentyabr kunidagi 754-sonli "Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorining 4-bandida hayotiy faoliyat xavfsizligi va fuqaro muhofaza yo'nalishlaridagi o'quv dasturlarini ta'lim yo'nalishlari uchun zamonaviy talablar asosida takomillashtirish va ta'lim jarayoniga joriy etish orqali aholini favqulodda vaziyatlarda harakatlanishga tayyorlanganlik darajasini oshirish talab etiladi [10]. Favqulodda vaziyatlarga doir mavzular bo'yicha axborot texnologiyalarini keng qamrovli qo'llanilishi bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining oliv va o'rta ta'lim muassasalari, o'quv yurtlari va hududiy "Hayotiy faoliyat xavfsizligi" o'quv markazlari orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari kompyuter ekranida tasvirni simulyasiya qilish imkonini beradi, bu esa modellashtirilgan video makon ichida ta'lim oluvchining mavjudligi effektini yaratadi. Ta'lim oluvchi, bunday sun'iy muhit bilan oddiy manipulyasiya orqali o'zaro ta'sir qilish orqali belgilangan tartibda ekranda sodir bo'lgan harakatlarni o'zgartiradi va o'z faoliyatining keyingi bosqichlarini tayyorlaydi.[22] Ko'pchilik, ayniqsa, yosh avlod vakillari, kompyuter o'yinlarining gipnoz kuchini boshdan kechirdilar, ularning g'aroyib syujetlari, bu sun'iy dunyoda odamlarni soatlab yashashiga to'sqinlik qilmaydi.

**Bizga kerak bo'lgan narsa** – syujetni o'zgartirishdir, bunda o'yinchi o'z turar joyining vayron bo'lgan hududiga duch keladi, qo'shni mikrobiologiya instituti, kimyoviy ob'ekt yoki yadroviy reaktor xavf manbai hisoblanadi. Omon qolish va bu o'yinda g'alaba qozonish uning qoidalarini yaxshi bilish lozim. Asosiy qoidalar sifatida ishchi va texnika xavfsizligi bo'yicha ko'rsatmalar, shikastlanish va yo'qotishlar zonalarini hisoblash formulalari va dasturlari, qutqaruв vositalaridan foydalanish qoidalari, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish chora-tadbirlar rejasini bilish kerak.

Inson harakatlariga javoban o'zgarish kompyuter qarshisida o'tirib, sun'iy muhit asta-sekin ta'lim oluvchida muayyan muhim vaziyatlarda to'g'ri harakatlar ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ta'lim oluvchilar tomonidan videokompyuter vositalari yordamida qanchalik mustahkam va to'liq bilimga erishiladi?

**An'anaviy ta'limda inson hayotida odatda xotirasining faqat kichik bir qismidan foydalanadi.**

Inson xotirasida saqlash quyidagicha:

- o'qilgan axborotning 15% gacha;
- eshitilgan axborotning 25% gacha;
- eshitilgan va ko'rilgan axborotning 55% gacha;
- agar u interfaol o'quv jarayonida qatnashsa yanada ko'proq. ko'rsatkichga erishiladi

Interfaol (ya'ni o'zgaruvchan talabaning harakatlariga javoban) kompyuter o'yin dasturlari, ta'lim oluvchi bilan dialogik muloqot o'rnatadi, muammoli vaziyatlarni yaratadi va ushbu vaziyatdan chiqish yo'llini topishga undaydi. Videokompyuter dasturi jarayonlarni qanchalik aniq aks ettirsa, olingan ko'nikmalar yuqori bo'ladi va real sharoitlarda yanada bilimlarni takomillashtirilib boriladi [22]. Matn, tovush (nutq, musiqa, ovoz effektlari), chizmalar, fotosuratlar, videolar va animatsiya qismlarini aks ettiruvchi o'quv materiallarini yaratish va tasvirlash imkonini beruvchi multimedia texnologiyalari real vaziyatni modellashtirish uchun eng katta imkoniyatdir. Multimedia muhiti bilan o'zaro munosabat ko'p jihatdan ta'lim oluvchining real ob'ektlar bilan o'zaro munosabatiga o'xshaydi.

**Multimedia ta'lim texnologiyalari** - barcha his-tuyg'u organlariga kompleks ta'sir, ta'lif oluvchilar diqqatini nazorat qilish, simulyasiya qilingan axborot muhitini chuqur anglash, turli xil muammoli vaziyatlarni yaratish orqali ta'lim oluvchilarning ruhiy holatini nazorat qilish, bir-nechta foydalanuvchiga bir xil ma'lumotni har xil qilib berish imkoniyati, turli vaziyatlarni modellashtirish, muayyan shaxsning bilim va tajribasiga dasturni moslashtirish imkonini beradi. Multimedia vositalari orqali ta'lim oluvchiga taqdim etilgan o'quv ma'lumotlari ta'lim oqimini tahminan 10-100 martagacha siqish imkonini beradi. Bu simulyasiya qilingan sun'iy muhitda ta'lim oluvchining faol harakatiga va sezgi organlariga kompleks ta'sir tufayli erishiladi [21].

Kompyuter multimedia ta'lim dasturlari xorijda juda keng qo'llaniladi.

Mamlakatimizda multimedia ta'lim dasturlarini yaratish tannarxi qimmatligi va ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalarining yetarli darajada keng tarqalmaganligi sababli to'liq qamrab olinmagan. Respublikamiz ta'lim dasturlarining holatini tahlil qilish orqali multimedia vositalaridan foydalangan holda aholini turli toifalari va mutaxassislarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilish va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish zarurati mavjud degan xulosaga kelish mumkin.

**“Elektron Ta’lim”** atamasi kompyuter yordamida o’qitish deb tushunilgan, biroq axborot texnologiyalari rivoji bilan bu tushuncha yanada kengaytirildi. Bugungi kunda elektron Ta’lim ko’pgina Ta’lim texnologiyalarini qamrab olmoqda, ularni shartli ravishda, 2 xil turga, ya’ni sinxron va asinxron turlarga bo’lish mumkin. Sinxron elektron Ta’lim — masofaviy Ta’lim hisoblanadi, lekin bu real vaqtda amalga oshiriladigan Ta’limdir. U oddiy kunduzgi Ta’limga o’xshaydi, farqi shundaki, ishtirokchilar bir-biridan uzoq masofada bo’ladi.

### **An'anaviy va zamonaviy AKT muhitida tashkil etilgan Ta’limni**

## qiyosiy tahlili

**Elektron vositalarni yaratishning uchta muhim bosqichning  
o'zaro bog'liqligi**

**Mazmun bosqichi** – bu bosqichda elektron vositalarning axborot-ta'limga resurslarini shakllantirish va uning axborot ta'minoti mazmuni yaratiladi

**Tashkiliy bosqich** – bu bosqichda elektron vositalar yaratishning texnik jihatlari bilan bir qatorda, foydalanuvchilarning toifalarini aniqlashtirish, mavjud resurslarni tizimlashtirish va yangilab borish mexanizmlarini ishlab chiqish, ta'limga muassasalaridagi mavjud resurslarni integratsiyalash, elektron ta'limga tashkil etish, axborot-ta'limga resurslariga bo'lgan talabni aniqlash maqsadida foydalanuvchilar bo'yicha statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil etish amalga oshiriladi

**Metodik ta'minot bosqichi** – bu bosqichda elektron vositalardan o'quv jarayonida foydalanish metodikasini ishlab chiqish, maslahat xizmatlarini bajarish yo'lga qo'yiladi

Nº	An'anaviy Ta'limga	Zamonaviy Ta'limga
1	Ta'limga oluvchiga bilim va tajriba berish	Ta'limga oluvchilarning shaxsiy barkamolligini ta'minlash va rivojlantirish
2	Fuqarolarning favqulodda vaziyatlarda ko'rildigan zarur choralar haqidagi bilimlarini oshirish	Qiyinchiliklarsiz yashashga o'rgatish
3	Hozirdidan kelgusida yaxshi bo'lishga tayyorlash	Doimiy o'zgarish jarayonida yashashga o'rgatish
4	Ta'limga maqsadi – bilim olish	Ta'limga maqsadi – o'zini rivojlantirish, barkamollilik
5	Fuqarolarning maqsadini tayyor holda olish	O'zining huquqiy maqsadlarini qo'yishi va unga erishish yo'llarini tanlash
6	Aholini nazorat turlaridan o'tkazish	Ob'ektiv va o'z vaqtida nazoratga intilish
7	O'quv muassasalari o'zaro o'xshash	Har bir o'quv muassasasi yuksalish sari intiladi
8	Aniq o'qituvchi	Malakali o'qituvchi tanlash imkoniyati

## XULOSA

Men o'ylaymanki, mamlakatimizda axborot texnologiyalarining rivojlanishi va yuksalishi bundan keyin ham davom etadi. Oxirgi yillarda elektron ta'larning an'anaviy ta'limga qaraganda afzallik jihatlari ko'proq aniqlanmoqda. Elektron Ta'limgan resurslar - davlat Ta'limgan standarti va fan dasturida belgilangan, bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishni, o'quv jarayonini elektron vositalar yordamida kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni, mustaqil bilim olish va o'rghanishni hamda nazoratni amalga oshirishni ta'minlaydi. Ta'limgan oluvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan elektron ta'limgan uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, multimediali elektron ta'limgan resurslari, baholash metodlari va mezonlarini o'z ichiga oladi. Respublikamizda soha bo'yicha erishilgan rivojlanish darajasi va tahliliy materiallar favqulodda vaziyatlarni simulyatsiya qilish va natijada ularning oqibatlarini bartaraf etish uchun ta'limgan oluvchilarning qiziqishlariga oid usullarni o'rghanish uchun yetarlicha bizga imkon beradi. Yuqori sifatli o'quv dasturlarini yaratish uchun favqulodda vaziyatlarni oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish ishlariga jalb qilinadigan barcha xizmatlar bilan yaqin hamkorlikda amalga oshirish zarur. Kompyuter texnikasi orqali texnogen tabiiy va ekologik tusdagi ofatlarni oldini olish haqidagi ma'lumotlarni tezkor bilib olish, uni hoxlagan vaqtida qayta takrorlash, amaliy ishlarni videolar orqali mustaqil o'rghanish va bilimlarini testlar orqali baholab ko'rish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari, zamonaviy elektron ta'limgan resurslarning afzalligi aholiga taqdim etilayotgan o'quv axborotlarini erkin qabul qilish, ularni individuallik xususiyatiga ko'ra, o'zlashtirish oson kechadi. Bunda o'quv axborotlari oqimidan samarali foydalanish hamda yuzaga keladigan muammolarni hal etishda kerakli ko'rsatmalar orqali muammoni hal etishda yordam beradi.

Fuqarolarning favqulodda vaziyatlarda ko'rildigan zaruriy choralar haqidagi bilmlarini oshirish, kompyuter texnologiyalari orqali bilim olishdan iborat bo'lib, undagi maruzalar, videolar, qiziqarli o'yinlar va bilimlarini testlar orqali baholab ko'rish, bu esa foydalanuvchilarga taqdim etilayotgan materialarni oson o'zlashtirishga va yodda saqlab qolishiga yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 1998 yil 27 oktabrdagi 455-sonli qarori. Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 sentyabry kunidagi 754-sonli «Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi Qarori.

3. Gidrotexnik inshootlaridagi favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda qidiruv- qutqaruv ishlarini amalga oshirish chora tadbirlari “FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES” ITALIA (144-149 b) [WWW.INTERONCONF.ORG](http://WWW.INTERONCONF.ORG) Nuraliyev.A.O Axmadjonov.M.A

4. Zaharli moddalardan aholini muhofazalashni iqtisodiy samaradorligini oshirish chora tadbirlari MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFECIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH CONFERENCE GERMANY ( 282-286 b ) [WWW.INTERONCONF.ORG](http://WWW.INTERONCONF.ORG) Nuraliyev.A.O Berdiyev.D.F

5. Sanoat korxonalarida uzluksiz mehnat tizimini tashkillashtirish, boshqaruv tizimini tashkil etish MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFECIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH CONFERENCE GERMANY (275-281 b) [WWW.INTERONCONF.ORG](http://WWW.INTERONCONF.ORG) Nuraliyev.A.O Qodirov.D.B

6. Mamlakatimizda seysmik faol hududlarida bino va inshootlar barqarorligini taminlash istiqbollari Международный современный научно-практический журнал № 11 (100), часть 1, (234-242b) Nuraliyev.A.O Mamasidiqov.A.M

7. FAVQULODDA VAZIYATLARDA FUQAROLARGA PSIXOLOGIK YORDAM KO'RSATISHNING ASOSIY TAMOYILLARI, ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ <http://web-journal.ru/index.php/journal/issue/view/155>